

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI VAZIRLIGI
OLIIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
SAMARQAND DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI**

Ro'yxatga olindi:
№ BD 34
2025-yil 25 avgust



**UMUMIY TABIIY GEOGRAFIYA
FANINING O'QUV DASTURI
(kunduzgi, kechki)**

Bilim sohasi:	500 000 - Tabiiy fanlar, matematika, statistika
Ta'lim sohasi:	530 000 – Fizika va tabiiy fanlar
Ta'lim yo'nalishi:	60530200 – Geografiya

Samarqand – 2025

Fan/mavzu kodi UG11210		O'quv yili 2025-2026	Semestr 1,2	Kreditlar 10	
Fan/mavzu turi Majburiy		Ta'lim tili O'zbek		Haftadagi dars soatlari 6/4	
1.	Fanning nomi	Auditoriya mashg'ulotlari (soat)		Mustaqil ta'lim (soat)	Jami yuklama (soat)
	Umumiy tabiiy geografiya	120 (60/60)		180	300
2.	I. Fanning mazmuni <p>Fanni o'qitishdan maqsad – talabalarga geografiya fanlar tizimi, geografiya fanining rivojlanish tarixi, Umumiy tabiiy geografiyaning maqsad va vazifalari, tadqiqot usullari, Koinot, Quyosh tizimi, geografik qobiqda sodir bo'layotgan voqea va hodisalar, geografik qobiqni yaxlit tizim sifatida bo'ylama va ko'ndalang tuzilishi, geografik qobiqning tarkibiy qismlari, undagi harakatlar, ularning kelib chiqish sabablari va rivojlanish qonuniyatlari, jamiyat va tabiatning o'zaro aloqasi hamda insonning geografik jarayonlarga ta'siri, geografik bashorat haqida bilim berish, tahlil qilishga o'rgatish, tahliliy – tanqidiy, ijodiy va mustaqil fikr yuritish ko'nikmalarini rivojlantirish.</p> <p>Fanning vazifasi – talabalarda geografiya fanlar tizimi, geografiya fanining rivojlanish tarixi, Umumiy tabiiy geografiya fanining maqsad va vazifalari, tadqiqot usullari va ulardan foydalanish yo'llari, Koinot, Quyosh tizimi, sayyoralar, Oy va ularning xususiyatlari, Koinotning yerga ta'siri, Yerning sayyora sifatidagi ta'rifi, Yerning harakatlari va uning geografik oqibatlariga oid asosiy geografik tushunchalar, geografik qobiqda sodir bo'layotgan voqea va hodisalar, geografik qobiqni yaxlit tizim sifatida bo'ylama va ko'ndalang tuzilishi, geografik qobiqning tarkibiy qismlari, undagi harakatlar, ularning kelib chiqish sabablari va rivojlanish qonuniyatlari, jamiyat va tabiatning o'zaro aloqasi hamda insonning geografik jarayonlarga ta'siri, geografik bashorat va uning ahamiyati haqida ilmiy bilimlar berish, ko'nikma va malakalarini hosil qilishdan iborat.</p> <p style="text-align: center;">II. Nazariy qism (ma'ruza mashg'ulotlari)</p> <p style="text-align: center;">I. Fan tarkibiga quyidagi mavzular kiradi:</p> <p style="text-align: center;">Fan. Fanlar tizimi. Geografiya fanlar tizimi</p> <p>Fan, fanlar tizimi. Geografiya fanlari tizimi. Tabiiy geografik fanlar tizimi. Iqtisodiy geografik fanlar tizimi. Maxsus geografik fanlar tizimi. Geodeziya va kartografiya. Tabiiy geografik fanlar (geologiya, geomorfologiya, gidrologiya, landshafshunoslik).</p> <p style="text-align: center;">Geografik bilimlarning rivojlanish tarixi.</p> <p>Ibtidoiy davrda geografiya fanining rivojlanishi. Qadimgi davrlarda geografiya. Gerodot, Aristotel, Eratosfen, Ptolemey, Strabon. O'rta asrlar. Arab olimlarining tabiatshunoslik va geografiya fanining rivojlanishidagi roli. O'rta asrlarda geografiya fanining rivojlanishi. Sharq geografiyasi. Buyuk geografik kashfiyotlar davri. XVII-XIX asrlarda geografik tadqiqotlarning rivojlanishi. XX asrda geografik tadqiqotlar rivojlanishining asosiy yo'nalishlari. FTI va geografik tadqiqotlar.</p> <p>(МГУ) Основные этапы развития и методология физической географии. История путешествий и территориальных открытий. География в античное время. Геродот, Аристотель, Эратосфен, Птолемей, Страбон. Средневековье. Роль арабских ученых в развитии естествознания и географической науки. Эпоха Великих географических открытий.</p> <p>https://www.geogr.msu.ru/education/vo/prog_distc/programs_3xx/bak_NoZ/b_NoZ_Vvedenie_v_fizicheskuyu_geografiyu_2021.pdf</p>				

Umumiy tabiiy geografiyaning maqsad va vazifalari. Tadqiqot usullari.

Umumiy tabiiy geografiyaning maqsadi va vazifalari, tabiatdan foydalanishning optimallashtirishni geografik asoslarini sayyoraviy, mintaqaviy va mahalliy miqyoslarda ishlab chiqishga doir bilimlar berish. Nazariy tadqiqot usullari. Dala-ekspedisiya tadqiqot usullari. Laboratoriya va ekperimental usullar. Modellashtirish. Kartografik, matematik-statistik, tarixiy va qiyoslash hamda o'xshatish usullari.

Koinot haqida tushuncha. Quyosh tizimi.

Olam-cheksiz-chegarasiz dunyo. Metagalaktika, galaktikalar guruhi, galaktika, yulduzlar, Quyosh. Sayyoralar, asteroidlar, meteor va meteoritlar. Bizning galaktika. Galaktika yili. Quyosh tizimining galaktikamizdagi o'rni. Quyosh tizimining tuzilishi.

Quyosh. Sayyoralar. Oy.

Quyosh tizimining galaktikamizdagi o'rni. Quyosh tizimining tuzilishi. Quyosh. Ichki yoki yer toifasdagi sayyoralarning kattaligi, harakati, atmosferasi va o'ziga xos xususiyatlari. Tashqi yoki ulkan sayyoralarning kattaligi, fizik xossalari, harakati, atmosferasi. Asteroidlar, sayyoralar. Tabiiy yo'ldoshlar. Oy.

Yerning sayyora sifatidagi ta'rifi. Yerning harakati va uning geografik oqibatlari.

Magnitosfera.

Yer Quyosh tizimida. Aylanishi, shakli, tuzilishi va tarkibi. Koinot va Yer. Osmon jismlarining Quyosh tizimidagi jarayonlarga ta'siri. Quyosh va Yer o'rtasidagi bog'liqliklar. Yerning Quyosh atrofida aylanishi bilan bog'liq geografik jarayonlar. Yerning Quyosh atrofida aylanishi, tezligi va geografik oqibatlari. Yerning o'z o'qi atrofida aylanishi va uning geografik oqibatlari. Magnitosfera haqida tushuncha. Quyosh shamoli. Geomagnetik qutblar. Magnit ekvatori. Magnit enkayishi. Magnit meridiani. Magnit qutblarini harakati va ularning sabablari.

(МГУ) Земля в Солнечной системе. Вращение, форма, строение и состав Земли. Космос и Земля. Влияние движения холодных небесных тел на процессы в Солнечной системе. Земля в Солнечной системе. Солнечно-Земные связи. Географические процессы, связанные с обращением Земли вокруг Солнца. Влияние вращения на форму планеты.

https://www.geogr.msu.ru/education/vo/prog_distc/programs_3xx/bak_NoZ/b_NoZ_Vvedenie_v_fizicheskuyu_geografiyu_2021.pdf

Geografik qobiq va uning asosiy xususiyatlari.

Geografik qobiq haqida tushuncha. Geografik qobiqning tuzilishi. Geografik qobiqning asosiy xususiyatlari. Geografik qobiqning kimyoviy tuzilishi. Litosfera, gidrosfera, atmosfera va biosferaning kimyoviy tarkibi. Geografik qobiqdagi moddalarning fizik xossalari. Geografik qobiqni tabaqalanishi.

Litosfera. Yer po'stining tuzilishi.

Litosfera tushunchasi va uning o'lchamlari. Yer po'sti: materik, okean va oraliq yer po'stlari. Yer po'stining tuzilishi: kimyoviy elementlar, minerallar, tog' jinslari. Magmatik, cho'kindi va metorforfik tog' jinslari. Ularning hosil bo'lish sharoitlari va tarqalish qonuniyatlari.

Geoxronologik jadval. Platformalar, geosinklinallar. Asosiy tog' hosil bo'lishi bosqichlari.

Yerning yoshi va uni aniqlash usullari. Eonlar, eralar, davrlar. Platforma va geosinklinallar hosil bo'lishi. Asosiy tog' hosil bo'lish bosqichlari: Baykal (Rifey), Kaledon, Gersen, Kimmeriy, Laramiy, Alp.

Relyef. Relyef hosil qiluvchi omillar. Makro, mezo va mikrorelyef shakllari.
Gipsografik egri chiziq.

Relyef haqida tushuncha. Rel'ef hosil qiluvchi (geodinamik) jarayonlar. Geologik-geomorfologik jarayonlar haqida umumiy tushuncha. Endogen, ekzogen va "aralash" jarayonlar hamda ular hosil qiluvchi rel'ef komplekslari. Ularni vujudga keltiruvchi energiya manbalari. Geotekturalar, morfostrukturalar. Turli kattalikdagi relyef shakllarining hosil bo'lishi. Gipsografik egri chiziq va uning tahlili natijasida aniqlanadigan qonuniyatlar.

(МГУ) Рельефообразующие (геодинамические) процессы. Общее понятие о геолого-geomorfологических процессах. Эндогенные, экзогенные и «смешанные» процессы и создаваемые ими комплексы рельефа. Источники энергии, порождающие их.

https://www.geogr.msu.ru/education/vo/prog_distc/programs_3xx/bak_NoZ/b_1_Geo_morfologiya_s_osnovami_geologii_2021.pdf

Tog'lar va tekisliklar, ularning turlari.

Tog' haqida tushuncha. Tog'larning balandligiga ko'ra turlari. Tog'li o'lkalar, tog' massivlari, tog' zanjirlari, tog' tizmalari, yassi tog'lar, tog'liklar. Ularning joylanishi va tarqalishi. Tog'lar tugunlari va ularning tarmoqlanishi. Tekisliklar tushunchasi. Qatlamli, akkumulyativ, denudasion tekisliklar. Tekislik relyefining zonalligi. Tekisliklarning shakliga ko'ra turlari.

Morfoskulptura relyef shakllari.

Strukturaviy geologiya va relyef. Morfostrukturalar haqida tushuncha. I.P. Gerasimovning turli miqyosdagi relyef shakllarining kelib chiqishi haqidagi konsepsiyasi. Flyuvial, vaqtincha oqar suvlar va doimiy oqar suvlar ta'sirida shakllanadigan relyef shakllari. Vodiylarning tektonik va morfologik turlari Karst, suffoziya, surilma, glyasial va eol relyef shakllari.

(МГУ) Структурная геология и рельеф. Понятие о морфоструктурах. Концепция И.П.Герасимова о происхождении разных по масштабам форм рельефа.

https://www.geogr.msu.ru/education/vo/prog_distc/programs_3xx/bak_NoZ/b_1_Geomorfologiya_s_osnovami_geologii_2021.pdf

Qirg'oq relyef shakllari. Okean tubi relyefi.

Dunyo okeani tubining rel'efi va cho'kindilari. Dengiz sohillari. Dengiz sohillari, quyidagi tushunchalarning ta'rifi: sohilbo'yi, qirg'oq, qirg'oq zonasi, qirg'oq yaqinidagi hududlar, qirg'oq morfositsemalari. Okean qirg'oq zonasining rivojlanishida to'lqin jarayonlari va boshqa omillarning roli. Dengiz sohillari va qirg'oqlarining turlari, ularning turli landshaft-iqlim sharoitlarida rivojlanishi.

(МГУ) Рельеф и осадки дна Мирового океана. Морские берега. Морские берега, Определение понятий: побережье, берег, береговая зона, прибрежные территории, береговые морфосистемы. Роль волновых процессов и прочих факторов в развитии береговой зоны океана. Типы морских побережий и морских берегов, развитие берегов в различных ландшафтно-климатических обстановках.

https://www.geogr.msu.ru/education/vo/prog_distc/programs_3xx/bak_G/b_G_fgm_yok_2021.pdf

Gidrosferaning tuzilishi. Suvning aylanma harakati. Suvlik va quruqlikning o'zaro ta'siri

Gidrosfera haqida tushuncha. Suvning xususiyatlari. Gidrosferaning tarkibiy qismlari: okean suvlari va quruqlik suvlari. Okean va quruqlik o'rtasida namlik, issiqlik, mineral va organik moddalarning almashinuvi.

Dunyo okeani. Okean suvlari xususiyati.

Okeanlarning tabiiy-geografik tavsifi: Tinch okeani, Hind okeani, Atlantika okeani, Shimoliy Muz okeani. Geografik joylashuvi, okean osti relyefi va dengiz cho'kindilarining taqsimlanish qonuniyatlari, qirg'oq turlari, iqlimi, suv massalari va ularning dinamikasi, hayot xilma-xilligi, tabiiy-geografik zonalligi va suv osti landshaftlari, tabiiy resurslar, xavf-xatarlar va dolzarb geoekologik muammolar.

(МГУ) Физико-географическая характеристика океанов: Тихий, Индийский, Атлантический, Северный Ледовитый. Физико-географическая характеристика океанов: Тихий, Индийский, Атлантический, Северный Ледовитый. Географическое положение, рельеф дна и закономерности распределения морских осадков, типы берегов, климат, водные массы и их динамика, разнообразие жизни, физико-географическая зональность и подводные ландшафты, природные ресурсы, риски и актуальные геоэкологические проблемы.

https://www.geogr.msu.ru/education/vo/prog_distc/programs_3xx/bak_G/b_G_fgm_y_ok_2021.pdf

Okean suvlari harakati. Okeanda hayot.

To'lqinlar. To'lqin elementlari. To'lqin turlari. Okeanda organizmlarni tarqalishi va ularning vazifasiga ko'ra turlari Plankton. Zooplankton, fitoplankton. Nekton. Bental organizmlar. Biomassa. O'simliklar. Okeandagi biogeografik oblastlar. Okean organizmlarini muhofaza qilish.

Quruqlik suvlari. Yer osti suvlari.

Yer osti suvlarining kelib chiqishi. Gruntning suv o'tkazuvchanligi va suv o'tkazish koeffitsiyenti. Tog' jinslarida mavjud bo'lgan suvlar. Bug'langan, kapillyar va gravitatsion suvlar. Aeratsiya zonasi haqida tushuncha. Yer osti suvlarini yotqizilish xarakteriga ko'ra klassifikatsiyasi. Aeratsiya zonasi va to'yinish zonasi suvlari. To'yinish zonasidagi bosimsiz (grunt suvlari) va bosimli (artezian suvlari) suvlar. Yer osti suvlarining harakati.

(МГУ) Гидрология подземных вод. Происхождение подземных вод. Водопроницаемость грунта и коэффициент фильтрации воды. Виды воды в порках горных пород. Связанная, капиллярная, гравитационная вода. Понятие о зоне аэрации. Классификация подземных вод по характеру их залегания. Воды зоны аэрации и зоны насыщения. Безнапорные (грунтовые воды) и напорные (артезианские воды) зоны насыщения. Движение подземных вод.

https://www.geogr.msu.ru/education/vo/prog_distc/programs_3xx/bak_NoZ/b_NoZ_Gidrologiya_2021.pdf

Yer usti suvlari. Daryolar .

Daryolar gidrologiyasi. Daryolarning o'lchami, to'yinish manbalari, suv va muz rejimi, nishabligi va suv oqimining holati, o'zanining barqarorligi bo'yicha klassifikatsiyasi. Daryo havzasi. Daryo havzalarining landshaft xususiyatlari. Hidrografik va daryo tarmoqlari. Daryoning profili. Daryo vodiylarining turlari va vodi y ichidagi relyef elementlari. Daryolardan foydalanish, ularning ahamiyati.

(МГУ) Гидрология рек. Классификации рек по размерам, источникам питания, водному и ледовому режиму, уклонам и состоянию водных потоков, устойчивости русла, времени существования. Водосбор и бассейн реки. Ландшафтные отличия

бассейнов рек. Гидрографическая и речная сеть. Продольный профиль реки. Типы речных долин и элементы внутри долинного рельефа.

https://www.geogr.msu.ru/education/vo/prog_distc/programs_3xx/bak_NoZ/b_NoZ_Gidrologiya_2021.pdf

Ko'llar, botqoqlar, suv omborlari. Muzliklar. Yer usti suvlarini muhofaza qilish.

Ko'llar gidrologiyasi. Ko'llarning o'lcham va geografik joylashuviga ko'ra turlari. Ko'l havzalarining paydo bo'lishi va suv almashinuvi turiga (chiqindi suvli va chiqindisiz) ko'ra farqlari. Ko'llarning morfologiyasi va morfometrik xususiyatlari. Ko'l suvi haroratining chuqurlikka ko'ra mavsumiy taqsimlanishining o'ziga xosligi. Ko'l suvlari minerallashtirish va tuz tarkibiga ko'ra klassifikatsiyasi. Oligotrof, mezotrof, eutrof va distrof ko'llarning farqlari. Suv omborlari va ularning vazifalari. Muzliklar Xionosfera, qor chegarasi. Materik va tog' muzliklari. Muzliklarning ishi. Yer usti suvlarini muhofaza qilishning asosiy yo'nalishlari.

(МГУ) Гидрология озер. Типы озер по размеру и географическому положению. Отличия озер по генезису озерных котловин и типу водообмена (сточные, бессточные). Морфология и морфометрические характеристики озер. Сезонные особенности распределения температуры воды по глубине озер. Классификация озерных вод по минерализации и солевому составу. Отличия олиготрофных, мезотрофных, евтрофных и дистрофных озер.

https://www.geogr.msu.ru/education/vo/prog_distc/programs_3xx/bak_NoZ/b_NoZ_Gidrologiya_2021.pdf

Atmosfera. Atmosferaning tuzilishi va tarkibi. Havo massalari. Quyosh radiatsiyasi

Atmosfera tarkibi va tuzilishi. Atmosferadagi radiatsiya. Atmosfera: tarkib, zichlik, bosim, harorat. Havodagi gaz va aerazol aralashmalari, ozon. Radiatsiya nazariyasining asoslari. Radiatsiyaning o'tishi va aks etishi. Umumiy radiatsiya, albedo. Quyosh doimiyliigi. Issiqxona effekti. Yer yuzasining radiatsion muvozanati.

(МГУ) Состав и строение атмосферы. Радиация в атмосфере. Атмосфера: состав, плотность, давление, температура. Газовые и аэрозольные примеси в воздухе, озон. Основы теории радиации. Пропускание радиации и отражение. Суммарная радиация, Альbedo. Солнечная постоянная. Парниковый эффект. Радиационный баланс земной поверхности.

https://www.geogr.msu.ru/education/vo/prog_distc/programs_3xx/bak_NoZ/b_NoZ_klimatologia_2021.pdf

Atmosferadagi suv.

Atmosferadagi suv. Bulutlar. Yog'inlar. Bug'lanish. Havo namligi. Mutloq va nisbiy namlik. Kondensatsiya va sublimatsiya. Kondensatsiya balandligi. Tumanlar. Yog'inlarning yer yuzasida taqsimlanishi. Namlik koeffitsiyenti.

(МГУ) Вода в атмосфере. Облака. Осадки. Вода в атмосфере. Испарение. Осадки.
https://www.geogr.msu.ru/education/vo/prog_distc/programs_3xx/bak_NoZ/b_NoZ_klimatologia_2021.pdf

Atmosfera bosimi. Shamollar. Siklonlar va antisiklonlar. Atmosfera harakati. Ob-havo va iqlim.

Barik maydon va atmosfera aylanish tizimlari. Turbulentlik. Barik maydon va shamol. Shamolning o'tkinchi kuchayishi. Siklonlar va antisiklonlar. Atmosferadagi frontlar. Frontlardagi ob-havo sharoitlari. Atmosferaning umumiy aylanishi. Mussonlar. Passatlar. Urganlar. Mahalliy shamollar.

(МГУ) Барическое поле и циркуляционные системы атмосферы. Турбулентность. Барическое поле и ветер. Порывистость ветра. Циклоны и антициклоны. Фронты в

атмосфере. Условия погоды на фронтах. Общая циркуляция атмосферы. Муссоны. Пассаты. Ураганы. Местные ветры.

https://www.geogr.msu.ru/education/vo/prog_distc/programs_3xx/bak_NoZ/b_NoZ_kl_imatologia_2021.pdf

Biosfera.

Biosfera. Yashovchan moddalarining sayyoraviy roli va vazifalari. Okean va quruqliklarda hayot zichlashgan zonalar. Biogeokimyoviy tamoyillar. Landshaft va biologik xilma-xillikni saqlash zarurati.

(МГУ) Основные общегеографические закономерности. Биосфера. Планетарная роль и функции живого вещества. Зоны сгущения жизни в океане и на континентах. Биогеохимические принципы. Необходимость сохранения ландшафтного и биологического разнообразия.

https://www.geogr.msu.ru/education/vo/prog_distc/programs_3xx/bak_NoZ/b_NoZ_Vvedenie_v_fizicheskuyu_geografiyu_2021.pdf

Geografik qobiqning gorizantal va vertikal tabaqalanishi. Issiqlik va iqlim mintaqalari.

Global, mintaqaviy, mahalliy omillar. Issiqlik mintaqalari: issiq mintaq, mo'tadil issiq mintaq, mo'tadil iliq mintaq, mo'tadil sovuq mintaq, sovuq mintaq. Iqlim mintaqalari. Iqlim mintaqalarining vujudga kelishi va ularning asosiy ko'rsatkichlari. Asosiy iqlim mintaqalari va oraliq iqlim mintaqalari: shimoliy va janubiy subekvatorial, shimoliy va janubiy subtropik, subarktika va subantarktika. Har bir iqlim mintaqasining tavsifi va o'ziga xos xususiyatlari.

Tabiat zonalari. Landshaft tuzilmalari. Balandlik mintaqalari.

Tabiat zonalarining vujudga kelishi. Zonallik qonuni. Iqlim mintaqalari doirasida tabiat zonalarini joylanishini umumsayyoraviy modeli. Zonallikning davriy qonuni. Landshaft, uning morfologik tuzilishi. Landshaftlarni sinflashtirish: tog' va tekislik landshaftlari; balandlik va botiqlik landshaftlari. Antropogen landshaftlar. Balandlik mintaqalari.

Geografik qobiqning rivojlanish manbalari. Kriptozoymda va fanerazoymda geografik qobiqning rivojlanishi

Geografik qobiqning rivojlanish manbalari: tog' jinslarining yotishi, tarkibi, xossalari; tektonik harakatlar, vulqonlar, tabiiy geografik jarayonlar. Kriptozoymda geografik qobiqning rivojlanishi. Materik va okeanlarning kelib chiqishi haqidagi gipotezalar. Yerdagi hayotning paydo bo'lishi. Odamning paydo bo'lishi. Hozirgi tabiiy geografik sharoitni vujudga kelishi.

Insonning geografik jarayonlarga ta'siri. Atrof muhit monitoringi

Ekologiya va tabiiy resurslardan foydalanish. Inson va tabiat o'rtasidagi o'zaro ta'sirlar tarixiy rivojlanishda. Ekologik muammolarning mohiyati. Shaharlashuv va atrof-muhitning ifloslanishi. Ekologik muammolarni hal qilishda monitoring va ekologik ekspertizaning roli. Qo'riqxonalar va ularning funksiyalari.

(МГУ) Физическая география, экология и природопользование. Взаимодействие человека и природы в историческом развитии. Сущность экологических проблем. Урбанизация и загрязнение окружающей среды. Роль мониторинга, экологической экспертизы в решении экологических проблем. Заповедники и их функции.

https://www.geogr.msu.ru/education/vo/prog_distc/programs_3xx/bak_NoZ/b_NoZ_Vvedenie_v_fizicheskuyu_geografiyu_2021.pdf

Geografik bashorat

Bashorat. Geografik bashorat va uning turlari. Geografik komplekslarning bashorat belgilari. Sayyoraviy, mintaqaviy va mahalliy bashoratlarlar. O'zbekiston tabiat komplekslarini bashoratlash.

III. Amaliy mashg'ulotlar bo'yicha ko'rsatma va tavsiyalar

Amaliy mashg'ulotlar uchun quyidagi mavzular tavsiya etiladi:




1. Fan. Fanlar tizimi. Geografiya fanlar tizimi
2. Geografik bilimlarning rivojlanish tarixi
3. Quyosh. Sayyoralar. Oy
4. Yer to'g'risidagi umumiy ma'lumotlar
5. Geografik qobiq va uning asosiy xususiyatlari
6. Geoxronologik jadval. Platformalar, geosinklinallar. Asosiy tog' hosil bo'lishi bosqichlari
7. Litosfera. Yer po'stining tuzilishi
8. Relyef. Relyef hosil qiluvchi omillar
9. Gipsografik egri chiziq.
10. Tog'lar va tekisliklar (Yevrosiyo materigi)
11. Tog'lar va tekisliklar (Shimoliy va Janubiy Amerika materigi)
12. Tog'lar va tekisliklar (Afrika, Avstraliya va Antarktida materigi)
13. Morfoskulptura relyef shakllari
14. Qirg'oq relyef shakllari. Okean tubi relyefi
15. Gidrosferaning tuzilishi. Suvning aylanma harakati
16. Dunyo okeani. Okean suvining xususiyatlari
17. Yer osti suvlari
18. Yer usti suvlari
19. Ko'llar, botqoqlar, suv omborlari. Muzliklar.
20. Atmosferaning tuzilishi va tarkibi
21. Atmosferaning tuzilishi va tarkibi (masala va mashqlar bajarish)
22. Ob-havo va iqlim
23. Issiqlik va iqlim mintaqalari
24. Biosfera
25. Tabiat zonalari
26. Landshaftlar
27. Balandlik mintaqalari
28. Insonning geografik jarayonlarga ta'siri.
29. Geografik bashorat







Amaliy mashg'ulotlarda mavzularga oid amaliy topshiriqlar bajarish, jadval va diagrammalar to'ldirish, atlas va yozuvsiz xaritada amaliy topshiriqlar bajarish, masalalar yechish, amaliy kuzatish, o'lchash, meteorologik asboblardan ishlash amallari bajariladi.

IV. Mustaqil ta'lim va mustaqil ishlar

Auditoriyadan tashqari vaqtda bajariladigan mustaqil ishlar quyidagi turlarda amalga oshirilishi tavsiya etiladi:

- Mavzuni og'zaki bayon qilish;
- SWOT tahlili;
- Taqdimot tayyorlash;
- Mo'lumotlarni jadval ko'rinishida ifodalash;
- Yozuvsiz xarita bilan ishlash;
- Videodars tayyorlash;
- Ko'rgazmali qurol tayyorlash;

	<ul style="list-style-type: none"> - Bir soatlik dars ishanma tayyorlash; - Krassvord tuzish; - Noananaviy test topshiriqlari tayyorlash; - Xorijiy adabiyotlardan ma'lumotlarni to'plash, tarjima qilish va tahlil qilish; - Audio dars tayyorlash; - Internet ma'lumotlarini to'plash va tahlil qilish; - Adabiyotlar ro'yxatini tuzish; - So'rovnoma o'tkazish; <p style="text-align: center;">Mustaqil ta'lim uchun tavsiya etiladigan mavzulari:</p> <ol style="list-style-type: none"> 1. Yer haqidagi bilimlarning rivojlanish tarixi 2. O'rta Osiyoga qilingan sayohatlar 3. Yer sharining harakati va uning geografik oqibatlar 4. Yerning ichki tuzilishi 5. Umumgeografik qonuniyatlar 6. Daryolar va ularning ahamiyati 7. Suv omborlari va ularning ahamiyati 8. Yog'inlar va ularning turlari 9. Muzliklar 10. Landshaft klassifikatsiyasi va sinflashtirish. 11. Organizmlarning paydo bo'lishi va ularning tabiatga ta'siri 12. Yer shari aholisi va irqalar 13. Atmosfera mavzusi bo'yicha amaliy mashg'ulotlar 14. Shamollar va ulardan foydalanish 15. Biomassa va uning tarqalishi 16. Tuproq va uning geografik tarqalishi 17. Mintaqaviy va mahalliy geografik bashoratlar. 18. Ekologik muammoalar.
3.	<p style="text-align: center;">V. Ta'lim natijalari (shakllanadigan kompetensiyalar)</p> <p style="text-align: center;">Talaba bilish kerak:</p> <p>Geografiya fanini tizimlarga bo'lish, koinotning yerga ta'siri va uning asosiy oqibatlarini, geografik qobiqni yuzlama va bo'ylama yo'nalishida tabaqalanish sabablarini, geosferalarning tuzilishi va ularning joylanishiga ta'sir etuvchi omillartasavvurga ega bo'lishi; (bilim)</p> <p>Fanning mazmuni, mohiyati, maqsadi va vazifalari, gyeografiya fanlari tizimi, koinot to'g'risidagi asosiy tushunchalar, geografik qobiqning asosiy xususiyatlarining tuzulishi, undagi harakatlar, geografik qobiqning rivojlanish tarixini <i>bilishi va ulardan foydalana olishi; (ko'nikma).</i></p> <p>Umumiy tabiiy geografiya fanini o'qitishda ta'lim texnologiyalari, elektron plakatlar, tarqatma materiallar, elektron darsliklar va qo'llanmalar, internet ma'lumotlari, lokal tarmoqdagi turli o'quv, ilmiy bilimni nazorat qilish bo'yicha ma'lumotlar jamlamasidan foydalaniladi. Mustaqil ta'lim, aqliy hujum, vaziyatli masalalarni yechish, dissкусиya, rolly o'yinlar, referatlar yozish kabi pedagogik usullar bilan fanning o'qitilishi amalga oshiriladi va o'quvchilarni baholay olish to'g'risida malakalariga ega bo'lishi kabi <i>ko'nikmalariga ega bo'lishi kerak (malaka)</i></p>
4.	<p style="text-align: center;">VI. Ta'lim texnologiyalari va metodlari:</p> <ul style="list-style-type: none">  Modulli o'qitish  Loyihaviy ta'lim  Muammoli ta'lim  Flipped Classroom  SWOT tahlili

	 <i>Wenn diagrammasi</i>  <i>Debat</i>  <i>Assisment</i>  <i>Baliq skleti</i>  <i>Insert metodi</i>  <i>Bumerang</i>
5.	<p style="text-align: center;">VII. Kreditlarni olish uchun talablar:</p> <p>Fanga oid nazariy va amaliy tushunchalarni to‘la o‘zlashtirish, tahlil natijalarini to‘g‘ri aks ettira olish, o‘rganilayotgan jarayonlar haqida mustaqil mushohada yuritish, ijod qilish, joriy, mustaqil hamda oraliq nazorat shakllarida berilgan vazifa va topshiriqlarni bajarish, yakuniy nazorat bo‘yicha nazorat ishini (qoniqarli darajada) topshirish.</p>
6.	<p style="text-align: center;">VIII. Asosiy adabiyotlar</p> <ol style="list-style-type: none"> 1. Abdunazarov O‘Q., Mirakmalov M.T., Sharipov Sh.M. Umumiy tabiiy geografiya. – Toshkent, Barkamol fayz media nashriyoti. 2018. 2. Abdimurotov O.U. Geografiyadan masala va mashqlar Toshkent. “Malik Print” 2021. 3. Baratov P., Sultanova N. Umumiy tabiiy geografiya. T.: “Info Capital Group”, 2019. 4. Ibragimova R.A., Mirakmalov M.T. Yer bilimi asoslari. Toshkent: «Barkamol fayz media», 2017. 5. E.B.Ulug‘murodov, D.D.Juraxujayev, S.R.Mirzaliyev, N.D.Qosimov. Umumiy tabiiy geografiya (amaliy mashg‘ulotlar) // O‘quv qo‘llanma. – Samarqand, – “ACCESS SERVICE” nashriyoti, 2025-y. – 186 bet. <p style="text-align: center;">IX. Qo‘shimcha adabiyotlar</p> <ol style="list-style-type: none"> 1. Avezov M., Mirakmalov M. Geografiya fanidan amaliy mashg‘ulotlar. - T.: Donishmand ziyosi, 2022. - 216 b. 2. Ettwein V. and Maslin M. Physical geography: fundamentals of the physical environment. University of London. 2012 UK. ISBN: GY1147, 2790147 2011 3. Гледко, Ю. А. Общее землеведение: Учебное пособие / Ю. А. Гледко. – Минск: Вышэйшая школа, 2015. –320 с. 4. Nazarov I.Q. “Geografiya fanining asosiy muommalari”, Toshkent, “Muharrir”, 2013. 212-b. 5. Nizomov A., Alimqulov N., Tillyaxodjayeva Z. Tabiiy geografik jarayonlar. (O‘quv qo‘llanma). - T.: Fan va texnologiya, 2015, 112 b. 6. Vahobov H. va boshqalar. Umumiy tabiiy geografiya. T.: «Bilim» 2005. 7. Yunusov G‘.X., Ziyayev R.R, Umumiy gidrologiya va iqlimshunoslik. O‘quv qo‘llanma. - T.: Barkamol fayz media, 2018. - 360 b. <p style="text-align: center;">O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI PREZIDENTINING FARMONI</p> <ol style="list-style-type: none"> 8. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 11-sentabrdagi “O‘ZBEKISTON – 2030” strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-158-son Farmoni. 9. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 30-oktabrdagi “2030-yilgacha bo‘lgan davrda O‘zbekiston Respublikasining atrof muhitni muhofaza qilish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi PF-5863-son Farmoni. <p style="text-align: center;">Axborot manbaalari</p> <ol style="list-style-type: none"> 10. http://www.gov.uz - O‘zbekiston Respublikasi hukumati portali. 11. https://unilibrary.uz/ - O‘zbekiston Respublikasi oliy ta’lim va ilmiy tadqiqot muassasalarining yagona elektron kutubxona axborot tizimi 12. https://library.uzfi.uz/ - Samarqand davlat pedagogika instituti elektron kutubxona axborot tizimi 13. https://education.nationalgeographic.org - dunyo mo‘jizalarini yoritish va ularni asrashga qaratilgan platforma.

O'zbekiston-Finlandiya pedagogika instituti
"Geografiya" kafedrası assistenti D.D.Juraxujayev tomonidan tayyorlangan
"Umumiy tabiiy geografiya" o'quv fan dasturiga

TAQRIZ

Umumiy tabiiy geografiya fanlar tizimining ajralmas bir qismi bo'lib, Yer sharining eng ustki murakkab tuzilishga ega bo'lgan qatlami hisoblangan geografik qobiq tabiatini, tuzilishini, rivojlanish qonuniyatlarini o'rganadi. Talabalar ushbu fanni o'rganishlari orqali geografik qobiq-litosfera, gidrosfera, atmosfera va biosferalarning uzoq vaqt davom etgan o'zaro ta'siri va o'zaro uzviy aloqalarining hosilasi ekanligini bilib oladilar. Geografik qobiq Yering yaxlit qonuniy takomillashgan qobig'i bo'lib, Umumiy tabiiy geografiyaning o'rganish obyekti hisoblanadi.

Umumiy tabiiy geografiyani o'rganish orqali talabalar o'z o'lkasi O'zbekiston misolida geografik qobiq unsurlaridan tabiiy va antropogen omillar ta'sirida sodir bo'ladigan jarayonlarni hamda geografik qobiq komponentlarining tabiiy muvozanatini saqlab, qayta tiklab, boshqarib borish mumkinligi haqida bilimga ega bo'ladilar

Mazkur fan boshqa fanlar bilan bog'liq bo'lgan ta'lim jarayonida muhim ahamiyatga ega fan hisoblanadi. Ushbu fan dasturi Davlat ta'lim standartlari bo'yicha ta'lim mazmuni, ya'ni fanning maqsad va vazifalari, ma'ruza mashg'ulotlari mavzulari va ularning qisqacha mazmuni, amaliy mashg'ulotlar bo'yicha ko'rsatma va tavsiyalar, mustaqil ta'lim mazmuni, fan o'qitilishining natijalari, ya'ni talabalarda shakllanadigan kompetensiya, ta'lim texnologiyalari va metodlari, talabalarining kreditlarni olishlari uchun qo'yiladigan talablar, foydalangan adabiyotlar ro'yxati kabi qismlarni o'z ichiga oladi.

Dasturda fanining boshqa mutaxassislik fanlar bilan aloqadorligi faktlar asosida bayon etilgan.

Shuningdek, mazkur dasturni tuzishda yetakchi olimlar tomonidan nashr etilgan zamonaviy o'quv adabiyotlari asos qilib olingan. Umumiy tabiiy geografiya fanining fundamental asoslariga asosiy urg'u berilgan bo'lib, har bir mavzu bo'yicha yetarlicha ma'lumotlarni yoritishga e'tibor qaratilgan.

Ma'ruza, amaliy hamda mustaqil ta'lim topshiriqlari uchun mavzular mazmuni va shakli bajarish uchun talablar batafsil yoritilgan. Yuqoridagilarni inobatga olgan holda ushbu o'quv dasturini foydalanishga tavsiya etaman.

O'zbekiston-Finlandiya pedagogika instituti
Biologiya, Geografiya va iqtisodiy bilim asoslari
kafedrası dotsenti:



Xamroyeva F.A

O'zbekiston-Finlandiya pedagogika instituti
"Geografiya" kafedrası assistenti D.D.Juraxujayev tomonidan tayyorlangan
"Umumiy tabiiy geografiya" o'quv fan dasturiga

TAQRIZ

Umumiy tabiiy geografiya fani talabalarga geografik qobiqning rivojlanishi, tuzilishi, bo'linishi, tarkibiy qismlari va ularning o'zaro ta'sirini o'rgatish, Yer haqida umumiy va dastlabki tabiiy geografik bilimlarni, Yerning yadrosi, mantiyasi, litosfera, atmosfera, gidrosfera, biosfera haqida umumiy ma'lumotlar va ularda ro'y beradigan hodisalar, ularning xususiyatlari haqida bilimlar berishdan iborat.


"Umumiy tabiiy geografiya" fani boshqa fanlar bilan bog'liq bo'lgan ta'lim jarayonida muhim ahamiyatga ega fan hisoblanadi. "Umumiy tabiiy geografiya" fan dasturi 60530200 - Geografiya bakalavriat ta'lim yo'nalishi talabalariga mo'ljallangan. Ushbu fan dasturi Davlat ta'lim standartlari bo'yicha ta'lim mazmuni, ya'ni fanning maqsad va vazifalari, ma'ruza mashg'ulotlari mavzulari va ularning qisqacha mazmuni, amaliy mashg'ulotlar bo'yicha ko'rsatma va tavsiyalar, mustaqil ta'lim mazmuni, fan o'qitilishining natijalari, ya'ni talabalarda shakllanadigan kompetensiya, ta'lim texnologiyalari va metodlari, talabalarining kreditlarni olishlari uchun qo'yiladigan talablar, foydalangan adabiyotlar ro'yxati kabi qismlarni o'z ichiga oladi.

Mazkur fan dasturi fanning nazariy asoslarini to'liq qamrab olgan va har bir mavzu bo'yicha talabalar egallashi lozim bo'lgan bilim, ko'nikma va malakalar keltirib o'tilgan bo'lib, dasturning amaliy mashg'ulot qismi talabalarining nazariy jihatdan egallagan bilimni amaliy mustahkamlashga qaratilgan mavzularni o'z ichiga oladi. Berilgan metodik tavsiyalar amaliy mashg'ulotlarini tashkil etish va o'tkazish talablariga javob beradi hamda mazkur dasturda ta'lim berishning pedagogik texnologiyalardan keng foydalanish va har bir darsni o'qitishda zamonaviy AKT ni qo'llash jihatlariga ham alohida e'tibor qaratilgan.

Muallif tomonidan yaratilgan "Umumiy tabiiy geografiya" fan dasturi Malaka talablari asosida yozilgan, o'quv rejalariga to'liq mos keladi. Ushbu namunaviy fan dasturi 60530200 - "Geografiya" ta'lim yo'nalishi talabalariga uchun mo'ljallangan bo'lib, fan dasturni nashr qilishga loyiq deb hisoblayman.

Sharof Rashidov nomidagi SamDU

Ijtimoiy-iqtisodiy geografiya kafedrası dotsenti:

 **Ravshanov A.X**

A. Ravshanov ning imzosini
tasdiqlayman
Sharof Rashidov nomidagi
SamDU kafedrası bo'limi boshlig'i

